

KASBIY PEDAGOGIKANING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

*Qo‘qon davlat universiteti Sa‘nat va sport fakulteti
Professional ta‘lim Xalq ijodiyoti (cholg‘u ijrochiligi)
yo‘nalishi 3-kurs 01/23-PT guruh talabasi*

Soyibjonova Xanifaxon
Ilmiy rahbar: O.Xaydarov

Talaba Soyibjonova Xanifaxon tomonidan “Kasbiy pedagogikaning zamonaviy muammolari” mavzusida bajarilgan kurs ishi dolzarb, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan mavzulardan biriga bag‘ishlangan. Mazkur ishda kasbiy pedagogikaning bugungi kundagi o‘rni, rivojlanish tendensiyalari hamda mavjud muammolari tizimli ravishda yoritilgan.

Kurs ishining tuzilishi mantiqan to‘g‘ri tashkil etilgan bo‘lib, kirish, ikki bob, har bir bob yuzasidan xulosalar, umumiy xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning birinchi bobida kasbiy pedagogikaning nazariy asoslari, uning mohiyati, mazmuni va tarixiy rivojlanish bosqichlari keng yoritilgan. Shuningdek, kasbiy ta‘lim tizimining nazariy-metodologik asoslari ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan bo‘lib, talaba mavzuni chuqur o‘rganganligini ko‘rsatadi.

Ikkinchi bobda esa kasbiy pedagogikaning zamonaviy muammolari aniq misollar va tahlillar asosida ochib berilgan. Xususan, ta‘lim mazmunining zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kelmasligi muammosi asosli ravishda yoritilgan hamda bu borada mavjud kamchiliklar tahlil qilingan. Bundan tashqari, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan psixologik-pedagogik to‘siqlar chuqur o‘rganilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Talaba tomonidan ilgari surilgan fikrlar izchil, dalillarga asoslangan va mantiqan to‘g‘ri bayon etilgan. Kurs ishida ilmiy uslubga rioya qilingan, mavzu to‘liq ochib berilgan. Har bir bob yakunida berilgan xulosalar umumlashtiruvchi xarakterga ega bo‘lib, ishning umumiy mazmunini boyitgan.

Umuman olganda, Soyibjonova Xanifaxonning mazkur kurs ishi mustaqil bajarilgan, ilmiy yondashuv asosida yozilgan va qo‘yilgan talablarga to‘liq javob beradi. Ishni ijobiy baholash va himoyaga tavsiya etish mumkin.